

**“OPEN BANK” AJ TOMONIDAN JISMONIY SHAXSLARGA ONLAYN SHAKLDA UY-JOY
XARIDI UCHUN “IPOTEKA MUDDATLI TO’LOVI” QARZ MABLAG’LARI HISOBIDAN
SOTIB OLINGAN IPOTEKA (K’OCHMAS MULK)NI SUG’URTALASH TO’G’RISIDA**

BOSH KELISHUV № 01/08/11/001

Toshkent shahri

« 15 » 01 2026

“MY-INSURANCE” AJ sug’urta tashkiloti nomidan Ustav asosida ish yurituvchi jamiyat Bosh direktori A.Q.Yuldashev (keyinchalik matnda “Sug’urtalovchi” deb ataluvchi) bir tomondan va “Open bank” AJ nomidan 23.09.2025 yildagi 01-06/1051 -sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisining o’rinbosari I.B.Egamov (keyinchalik matnda “Naf oluvchi” deb ataluvchi) ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” va alohida “Tomon” deb ataluvchilar quyidagi mazmunda ushbu Bosh kelishuvni (matn davomida Bosh kelishuv deb yuritiladi) tuzdilar:

BOSH KELISHUV PREDMETI

1. Bosh kelishuvning predmeti bo’lib, Sug’urta qildiruvchida mulkdorlik, egalik qilish, idora qilish huquqi asosida bo’lgan, Naf oluvchiga garovga berilayotgan turar-joy binosidan mahrum bo’lishi (nobud bo’lishi) yoki uning shikastlanishidan sug’urtalash bo’lib, shu munosabat bilan Sug’urtalovchi sug’urta hodisasi sodir bo’lganda, Sug’urta qildiruvchi/Naf oluvchiga (oxirgisining talabiga ko’ra) ushbu Bosh kelishuvning ajralmas qismi Ommaviy oferta sug’urta shartnomasi (matn davomida Ommaviy oferta deb yuritiladi) va uning ilovasida ko’rsatilgan shartlarga muvofiq sug’urta tovonini belgilangan hajm va muddatda to’lash majburiyatini amalga oshirish hisoblanadi.

2. Bosh kelishuvning obyekti bo’lib, oldi-sotdi shartnomasi asosida Sug’urta qildiruvchiga tegishli bo’lgan Naf oluvchiga garovga berilayotgan ipoteka ko’chmas mulk (uy/ko’p qavatli xonadonlar)ni nobud bo’lishi yoki uning shikastlanishi bilan bog’liq O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo’lmagan mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

3. Onlayn shaklda ajratiladigan “Muddatli to’lov” qarz mablag’lari quyidagi maqsadlar uchun beriladi: Jismoniy shaxslarga ipoteka ko’chmas mulk (uy-joy/ko’p qavatli xonadonlar)ni harid qilish uchun.

4 Ommaviy oferta mijoz tomonidan akseptlangandan so’ng, oldi-sotdi shartnomasi asosida unga tegishli bo’lgan, Naf oluvchiga garovga berilayotgan ipoteka ko’chmas mulk (uy/ko’p qavatli xonadonlar)ni nobud bo’lishi yoki uning shikastlanishi bilan bog’liq xatarlardan sug’urtalash bo’yicha sug’urta mukofoti quyidagicha hisoblanadi:


- Naf oluvchiga garovga berilayotgan ipoteka ko’chmas mulk (uy-joy/ko’p qavatli xonadonlar)ni nobud bo’lishi yoki uning shikastlanishi bilan bog’liq xavflardan sug’urtalashda, sug’urta mukofoti sug’urta qiymatidan yillik 0,05 (nol butun yuzdan besh) foiz miqdorida hisoblanadi. Sug’urta mukofoti mablag’lari bankning quyidagi rekvizitlariga ko’ra o’tkazib beriladi.

Bank nomi: “Open bank” AJ

MFO: 01199

H/R: 20208000904786066012

5. Tomonlar Naf oluvchiga garovga berilayotgan ipoteka ko’chmas mulk (uy/ko’p qavatli xonadonlar)ni nobud bo’lishi yoki uning shikastlanishi bilan bog’liq xataridan sug’urtalash Ommaviy ofertasida quyidagi shartnomaviy munosabatlar, xususan: sug’urta puli, sug’urta mukofoti, sug’urta hodisasi, sug’urta tovonini to’lash shartlari, sug’urta shartnomasining amal qilish



va bekor qilish tartiblari, subrogatsiya, korrupsiyaga qarshi shartlar, tomonlarning huquq va majburiyatlari, javobgarligini belgilash yuzasidan o'zaro kelishib oldilar.

6. "Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi" sug'urta masalalari bo'yicha "Sug'urtalovchi" dan maslahatlar olish, bank va sug'urta tashkiloti o'rtasida sug'urta to'voni to'lash masalasida kelib chiqqan nizonlarni muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etish, mazkur Bosh kelishuvga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish taklifini berish huquqiga ega.



7. Ommaviy oferta shartlariga ko'ra, sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa, "Open bank" AJ Bosh ofisi tomonidan voqea sodir bo'lganidan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida o'ziga ma'lum holatlar va sabablarni ko'rsatgan holda "MY-INSURANCE" AJ STning Bosh ofisiga yozma ravishda xabar beradi.

8. Mazkur kelishuv va Ommaviy oferta shartnomasida ko'rsatilmagan o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

9. Tomonlar o'rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqqan bahslar yoki kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etiladi, ularni hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda javobgar joylashgan hududdagi sudga murojaat qilinadi.

10. Bosh Kelishuv o'zbek tilida 2 (ikki) nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va tomonlarga bir nusxadan beriladi. Bosh kelishuvga ilova qilingan Ommaviy ofertasi va uning ilovalari mazkur kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

SUG'URTALOVCHI: "MY-INSURANCE" AJ ST	NAF OLUVCHI "OPEN BANK" AJ
Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani kichik Mirobod ko'chasi 95 uy. H/R: 20208000904786066012 Bank: "Open bank" AJ MFO: 01199 STIR: 207 002 342 Tel: 71 205 19 19 Bosh direktor  A.Q. Yuldashev m.o'.	Yuridik manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 2A H/R: 29801000900001199001 MFO: 01199 STIR: 310 123 822 Tel.: (78) 777-13-77 Boshqaruv raisi o'rinbosari  I.B. Egamov m.o'.


15.01.2026.



Юрист:

